# TANLOV SAVDOLARIGA TAKLIF
# (ikki bosqichli usul)

| | |
|---|---|
| **Loyiha nomi:** | «500/220 kVli «Muruntov» podstansiyasini qurish va ikkita 3x167 MVAlik avtotransformatorini o‘rnatish» loyihasi |
| **YTTB loyihasi ro‘yxatdan o‘tish raqami:** | 50691-sonli Kelishuv |
| **Mamlakat:** | O‘zbekiston Respublikasi |
| **Buyurtmachi:** | O‘zbekiston Respublikasi — investitsiya mablag‘larini jalb etuvchi;<br>«O‘zbekiston MET» AJ — loyiha ijrochisi |
| **Xaridlar elektron portalining ro‘yxatga olish raqami:** | 14505423-sonli |
| **Tender faoliyatining nomi:** | «Navoiy issiqlik elektr stansiyasidan 220 kVli «Besopan» o‘chirib-yoqish punktigacha 177 km uzunlikdagi 220 kVli elektr uzatish tarmog‘ini 500 kVli gabaritda qurish» |
| **Tender faoliyatining tavsifi:** | «500/220 kVli «Muruntov» podstansiyasini qurish va ikkita 3x167 MVAlik avtotransformatorini o‘rnatish» hamda «Navoiy issiqlik elektr stansiyasidan 220 kVli «Besopan» o‘chirib-yoqish punktigacha 177 km uzunlikdagi 220 kVli elektr uzatish tarmog‘ini 500 kVli gabaritda qurish» |
| **Xaridlar turi:** | Qurilish-montaj ishlari |
| **Xaridlar usuli:** | Ikki bosqichli ochiq tender |
| **Sektor:** | Energetika |
| **Xabarnoma turi:** | Ikki bosqichli savdo tenderiga taklif |
| **Nashr qilingan sana:** | 2021-yil 3-fevral sanasi, London vaqti bilan soat 15:29 da |

| | |
|---|---|
| **E'lon qilish sanasi:** | 2021-yil 28-yanvar sanasi, London vaqti bilan soat 18:00 da |
| **Yopilish sanasi:** | 2021-yil 5-aprel sanasi, London vaqti bilan soat 10:00 da |

**TANLOV SAVDOLARIGA TAKLIF**
**(ikki bosqichli usul)**

## 1. Moliyalashtirish to‘g‘risida ma'lumot

Buyurtmachi — yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB) tomonidan ajratilgan kredit/grant mablag‘larining bir qismi shartnoma shartlariga muvofiq qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishni ko‘zda tutadi.

**Moliyalashtirish bo‘yicha qo‘shimcha ma'lumotlar:**

YTTB mablag‘laridan «Muruntov» podstansiyasini (50117-sonli idenfikatsiya raqami) va Navoiy elektr uzatish liniyasini modernizatsiya qilish (50691-sonli idenfikatsiya raqami) bo‘yicha yakuniy shartnoma(lar)ni moliyalashtirish uchun foydalaniladi. Buyurtmachi kredit kelishuvlarida belgilangan soliq imtiyozlaridan ozod bo‘lishga haqli.

## 2. Xarid faoliyati to‘g‘risida ma'lumot

Kelishuvlar YTTBning xarid qilish siyosati va qoidalari bilan tartibga solinadi va har qanday mamlakatdan qatnashayotgan ishtirokchilar uchun xarid hujjatlari ochiq bo‘ladi, agarda nazarda tutilmagan boshqa talablar inobatga olinmagan bo‘lsa.

Kelishuv turi va xarid usuli yuqorida keltirib o‘tilgan. Xarid qilish faoliyatining to‘liq tavsifi hujjatlarda va YTTBning elektron xaridlari portalida (ECEPP) mavjud.

Hujjatlar batafsil texnik va moliyaviy talablar, lotlar to‘g‘risidagi ma'lumotlar, kutilayotgan natija, muvofiqlik va malaka talablari, shartnomaning boshlanish sanasi, shartnomaning rejalashtirilgan davomiyligi, javob harakatlari munosabatlariga har qanday talablar va boshqa kerakli ma'lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Ushbu tender xaridlari YTTB mijozlarning elektron xaridlari portali (ECEPP) yordamida amalga oshiriladi. **Potensial ishtirokchilar xaridlar portaliga quyidagi havola yoki «Kirish imkoniyatlari» tugmachasini bosish orqali kirishlari mumkin.** Roʻyxatdan oʻtgan ishtirokchilar tizimga kirishlari va tender hujjatlari bilan tanishishlari mumkin, roʻyxatdan oʻtmagan qatnashchilar esa qisqa roʻyxatdan oʻtgandan soʻng quyidagi havolaga kirishlari mumkin:

**Havola:** https://ecepp.ebrd.com/respond/AZYA73VC8J

**3. Qoʻshimcha ma'lumotlar**

Ishtirokchilar bir yoki bir nechta lot uchun taklif kiritishga haqli. Har bir lotning narxi alohida belgilanishi lozim. Bir nechta lotlar boʻyicha tanlovlarda chegirmalar qoʻllanilishi mumkin va bunday chegirmalar tenderlarni taqqoslashda (gʻolibni aniqlashda) inobatga olinadi.

**4. Xaridorning manzili**

Mijozning manzili faqat ma'lumot berish uchun moʻljallangan. Qiziqish bildirganlar yuqorida keltirilgan tegishli havolalardan foydalangan holda ushbu portalga kirish imkoniyatiga ega. Ishtirokchilar Buyurtmachi bilan aloqa bogʻlash uchun YTTB mijozlarining elektron xaridlari portali (ECEPP) orqali murojaat qilishlari mumkin.

**Mas'ul shaxs:** **Anvar Kasimxodjayev.**
**Batafsil ma'lumotlar:** +998-71-236-6881.
**E'lon beruvchi:** «Oʻzbekiston milliy elektr tarmoqlari» aksiyadorlik jamiyati.
**Manzil:** Oʻzbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, 100084, Osiyo koʻchasi, 42-uy.
**Veb-sayt:** uzbekistonmet.uz
**Elektron pochta:** pmu.muruntau@gmail.com